



*Irodaxon ANARBOYEVA,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail:iroda\_an70@mail.ru*

*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, PhD Sh.Yusufjonova taqrizi asosida*

### TAKRORIY NOMINATSIYALAR PARADIGMATIK MUNOSABATLARINING VARIATIVLIK ASOSIDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fransuz va o‘zbek tillarida takroriy nominatsiyalar paradigmatic munosabatlarining variativlik asosida shakllanishi hususida so‘z boradi

**Kalit so‘zlar:** Takroriy nominatsiya, variativlik, paradigmatic, semantema, semantik, sintagmatik.

### ФОРМИРОВАНИЕ ПАРАДИГМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ПОВТОРНЫХ НОМИНАЦИЙ НА ОСНОВЕ ВАРИАБИЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье речь идет о формировании парадигматических отношений повторяющихся имен во французском и узбекском языках на основе вариации.

**Ключевые слова:** Повторная номинация, вариация, парадигматика, семантема, семантика, синтагматика.

### FORMATION OF PARADIGMATIC RELATIONSHIPS OF REPEATED NOMINATIONS BASED ON VARIABILITY

Annotation

This article deals with the formation of paradigmatic relations of repeated names in the French and Uzbek languages on the basis of variation.

**Key words:** Repeated nomination, variation, paradigmatic, semanteme, , semantic, syntagmatic

**Kirish.** Takroriy nominatsiya nutqda turli munosabatlarda ifodalanib, nutq me‘yori hamda ifoda qonuniyatlari talablariga ko‘ra kommunikatsiyani shakllantiradi. Takroriy nominatsiya vazifasida uchraydigan turli ifoda vositalari harakatni nomlash jarayonida muayyan semantema doirasida yoxud jarayon ifodasidagi koreferent bog‘lanishda o‘ziga xos paradigmatic uyg‘unlik yaratadi. Bunda barcha ma‘no jihatdan o‘zaro muvofiqlik hosil qiluvchi birliklar bir semantik maydonda birlashtiriladi.

Nominativ birliklarning semantik maydonda mujassamlashuvi nominativ ifodalarining variativligini hosil qiladi. Til ifoda birliklarining xilma-xillashuvi asosida nutqda variativlik yaratish til ifoda qudratini, salohiyatini, imkoniyatlarini belgilaydi. Takroriy nominatsiya nutqda ifoda variativligini vujudga keltiruvchi manbalardan biridir.

Tilning funksional-kommunikativ, dinamik aspektini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib borishi munosabati bilan hozirgi zamon tilshunosligida til ifodasi, kommunikatsiya jarayonida nutq mexanizmlarining ifodalanishi masalalari tilshunoslar diqqat markazida bo‘lib, bu vaziyat til vositalari xilma-xillashuvi, variatsiyalari muammolarini tadqiqotning asosiy planiga olib chiqishi tabiiydir.

Til birliklari xilma-xillashuvi, variativligi ularning ifoda jarayonida, aktuallashuvida, ya‘ni ularning semantik imkoniyati konkret muloqot jarayonida ifodasini topishida namoyon bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Til semantik imkoniyatining aktuallashuvi masalasi dastlab G.Paul tomonidan o‘rganila boshlangan[1]. Mazkur masala leksik sathda uzual va okkazonal tushunchalar bilan bog‘langan holda tadqiq etiladi. Olim uzual ma‘noga ijtimoiy jihatdan shakllangan, ya‘ni til tizimiga mansub lug‘aviy ma‘no sifatida ta‘rif beradi. Okkazonal ma‘no esa uzual ma‘noning individual nutq jarayonidagi konkret aktuallashuvini aks ettiradi.

Aktuallashuv masalasi Sh.Ballining virtual va aktual belgi nazariyasida ham ko‘tarilgan bo‘lib, aktual va virtual tushunchalar olim tasavvurida til tizimidan joy olgan til imkoniyatlari va ushbu imkoniyatlarning borliqqa aylanib, ro‘yobga chiqishi, uning nutq faoliyatidagi ifodasi, ya‘ni umumiy tushunchalarning real borliqidagi konkret vaziyatlar, faktlar, predmetlar bilan bog‘lanishi

hamda ushbu tushunchalarning zamon va makondan joy olishidir[2]. Aktuallashuv jarayonida tushunchalar hajmi aniqlashadi, ularning mazmuni konkret ko‘rinish kasb etadi.

Til leksik imkoniyatlarining aktuallashuvi R.Galissan tadqiqotlarida kuzatiladi[3]. Olim ma‘no komponenti tarkibida sodir bo‘ladigan jarayonlarga ko‘ra aktuallashuvning uch tipini farqlaydi. V.Shmidt esa ushbu jarayonni kontekst vositasida polisemiyaning olib tashlash nuqtai nazaridan o‘rganadi[4].

O‘zbek tilshunosligida N.Djusupov aktuallashuv nazariyasini kognitiv-uslubiy[5], Z.Rasulov kontekstda ellipsis hodisasi asosida tadqiq etganlar[6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Aktuallashuv jarayonlari tadqiqi semantik sintagmatika planida ifoda vositalarini muloqot jarayonida tanlab qo‘llash muammosi bilan uzviy bog‘lanadi. Nominatsiya nazariyasini ochib berishda til birliklarining onomasologik xususiyatlari tadqiqot jarayonining yetakchi aspektlarini tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** V.G.Gak nomlovchi birliklarning mos tarzda tanlab olinishi va voqelikdagi aksi bilan o‘zaro bog‘lanishi hamda ularning semantik vaziyatga ko‘ra ifoda etilish tamoyillarini keng tahlil etgan. Olim izlanishlarida avtonom (asos nominatsiya), noavtonom (takroriy nominatsiya) kabi nomlash turlarini ajratadi[7]. Nomlashning ikkinchi turi takroriy nominatsiya, asosan, matnda yoki nutq vaziyatida qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi.

A.F.Losev struktur tilshunoslikni o‘rganar ekan, shakl va mazmun tushunchalariga to‘xtaladi. An‘anaviy lingvistikada mazmun, struktur tilshunoslikda shaklga asoslanilganini ta‘kidlaydi[8]. Strukturalizm yo‘nalishi vakillari tilning sintagmatik munosabatlarini sintaksisga tayanib ochib beradilar. Lekin tilda shaklni mazmunsiz yoki mazmuni shaklsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Bunda shakldan mazmunga yo‘naltirilgan tadqiqotlar sintaktik strukturalar o‘rtasidagi paradigmatic aloqalar tadqiqoti uchun zamin hozirladi. Leksika sohasida strukturalizm, eng avvalo, paradigmatic munosabatlar tahlili bilan shug‘ullanadi. Semantik maydonlarni o‘rganish, til leksik tarkibini leksik-semantik guruhlar sifatida ochib berish paradigmatic izlanish mahsulidir. Semantikada ob‘yekt tashqi ko‘rinish simvollarini munosabati nazarda tutilsa, sintaksisda gapda o‘rin olgan

simvollar o'rtasidagi munosabat e'tiborga olinadi, bu holda sintaksis va leksika sohalari tahlili jarayonidagi strukturaviy metodlarning paradigmik tahlili bejiz emasligini e'tirof etish lozim.

Semantika va sintaksisning shu xildagi tavsifi, umumiy semiotika uchun monand kelsa-da, U.Veynreyx o'rinni izohlab o'tganidek, tabiiy tillar uchun uncha mos kelmaydi[9].

Tabiiy fanlarda belgining tashqi ob'yekt bilan bog'liqligi kuzatiladi. Semantikada, belgilarning tashqi ob'yektlar bilan aloqasi sintaktik xususiyatida namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda MDH, AQSh, Fransiya kabi mamlakatlar tilshunoslarning semantik sintagmatikani o'rganishga qiziqishi ortdi. Xususan, semantik ko'lamdagi gap elementlarining o'zaro aloqasini ochib berish, N.Xomskiyning hosilaviy grammatikasini semantik tahlil bilan to'ldirmoqchi bo'lgan Dj.Kats, Y.Fodor, P.Postal kabi tilshunoslarning ishlarida ko'zga tashlanadi[10].

Sintaksis bilan semantika o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish hamda semantikani tilning hosilaviy tasviri doirasiga kiritish yuzasidan qilingan harakat ushbu nazariyaning ijobiy qirrasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur nazariya bir qator salmoqli e'tirozlar uyg'otadi. Kats va Fodor o'z nazariyalarini ko'proq passiv planda rivojlantiradi[11]. Ular semantik nazariyani til jumllarini bayon etish jarayonida so'zlovchi qobiliyati nazariyasi sifatida talqin etadilar va, asosan, ma'noning ikki xilligi yo'llarini bartaraf etish bilangina qiziqadilar. Semantik sintezni o'rganishda bunday yondashuv o'zini oqlamaydi. Kats va Fodorning ishlarida semantik sintagmatikaga yo'nalish beruvchi "tasvir qoidasi" yetarli tarzda chuqur ishlanmaganligini U.Veynreyx qayta-qayta ta'kidlaydi. Olim o'zi avvalroq ishlab chiqilgan g'oyasini rivojlantirib, "yangi semantik nazariya"[12] ni taklif etadi. Semantik nazariya nutqda gap bo'laklarining joylashuvi ham ma'noga ta'sir etishi, jumlaning semantik tuzilishida semantik komponentlar uyg'unlashuvi qonuniyatlarining ahamiyatini o'rganadi. J.A.Fodor nazariyasiga nisbatan Veynreyx nazariyasi ko'proq kodlashtirishga (aktiv plan) yo'naltirilgan. Veynreyx semantik nazariyaning bevosita sintagmatik aspektini ancha chuqurlashtiradi va semantik ko'lamda gap komponentlarining o'zaro aloqasini aks ettiruvchi bir qator qoidalarni ajratib ko'rsatadi[13].

Kats va Fodorning "sintaksis tugagan joyda semantika boshlanadi", degan qarashlariga, Veynreyx o'z e'tirozlarini bildiradi va u tilda sintaksis bilan semantikaning o'zaro bir-biriga aylana olish jarayonini ishonchli tarzda ko'rsatib bera oldi. Lekin, olim leksik nominatsiyaning sintagmatikadan tashqarida yotgan tomoniga yetarli darajada baho bermaydi hamda semantikani sintaktik hosilaviy modelning qismigagina aylantirib, qarama-qarshi yo'nalishdagi xatoga yo'l qo'yadi. Veynreyx bir ma'noni yaratish yo'llari va zaruriyatini inobatga olmay, nominatsiya qonuniyatlarini chetlab o'tadi. Mohiyatiga ko'ra uning "hosilaviy semantika"si ham Kats-Fodor nazariyasi kabi situatsiyadan, nomlanadigan ob'yektdan ajratib qo'yilgan.

Xulosa va takliflar. Amerika strukturalistlarining semantik sintagmatika sohasidagi nazariy kashfiyotlarida asosiy kamchilik semantemalar o'rtasidagi munosabatlarni "o'zida", monand so'zlar bilan nomlanadigan ekstralingvistik elementlar o'rtasidagi aloqalardan ajratilgan holda tadqiq qilish hisoblanadi.

Gapda so'zlar birikuvini qonuniyatini ochib berish uchun leksemalarning formal distributsiyasini o'rganish kifoya, deb hisoblovchi so'z birikmalari an'anaviy nazariyasi ham xuddi shunday xatoga yo'l qo'ygan. Til hech qachon "o'zi uchun" yoki

"o'zidagina" ifodalanmaydi. U so'zlovchilar ongida aks etuvchi ekstralingvistik borliqni nomlash uchun xizmat qiladi.

Taniqli olim Sh.Safarov zamonaviy qarashlar negizida semantikaning integratsion mohiyatiga e'tibor qaratib, "ma'no shakllanishi va idroki kognitiv faoliyat bo'lib, ular tafakkur va lisoniy amallarning omuxtalashuvi sharoitida yuzaga keladigan hodisalardir"[14] – deb tavsiflaydi. Olim ma'no hodisasiga qanday aspektda yondashuvdan qat'iy nazar, ma'noning paydo bo'lishi zamirida lisoniy belgining ifodalanganotgan (atalayotgan) predmet-hodisa bilan bog'liqligi va bu bog'liqlik ong, tafakkur shakllari vositasida kechishi bilan xarakterlanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Sh.Safarov A.N.Smirtskiyning so'z ma'nosining ongdagi aksi uning ichki tomoni va unga nisbatan so'z talaffuzi material, qobiq vazifasini o'tovchi fonetik shakl ekanligi borasidagi ta'rifi tobora o'z isbotini topayotganligiga ishora qiladi[15].

Darhaqiqat, barchaga ma'lum semantik uchburchak til ifodasidagi uchta tomonga namoyon qiladi: til formalari, ong va borliq. So'zlar birikuvini anglab yetmoq uchun uch sathning o'zaro qanday bog'lanishini tahlil etish lozim: borliq sathi, ong sathi (L.Yelmslev terminologiyasiga ko'ra mazmun plani) va til sathi (ifoda plani).

Birinci sathda nomlashga mansub situativ elementlar ajratilib, ular muayyan aspektlarga bo'linadi. Har qaysi aspekt bir-biridan o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Nomlovchi atamada axborot va ma'lumot uzatish imkoniyatiga qodir bir va bir necha aspektlar o'z aksini topadi. Masalan, qatnov harakatining yo'nalishi yoki yurish vositasi kabi bir paytda ikki aspekt bo'yicha aniqlash mumkin. Kundalik mulqotda ushbu nomlanish ongsiz tarzda sodir bo'ladi. V.G.Gak mazmun planida situativ elementning aksi semantemani hosil etishi, aspektning aksi - semantik kategoriyani, semantik komponentni yoki sema esa aspektning farqlovchi tomonlarini aks ettirishi, ifoda planida bo'lsa semantema leksemaga monand kelishi, shuningdek, sema morfema vositasida ifoda etishini ta'kidlaydi[16]. Olimning fikri quyidagi misolda o'z tahliliga ega bo'ladi: rus tilida *приходить* fe'lidagi *при-* old qo'shimchasi qatnov yo'nalishi semantik kategoriyasi hamda "yaqinlashuv" semasini aks ettirsa, *ход-* o'zak morfema yurish vositasi semantik kategoriyasi, ya'ni "yayov" semasini ifodalaydi. Bunda ushbu semalar ma'lum jarayonning monand bo'lgan aspektlarini aks ettirishi kuzatiladi. Semantik kategoriya semaga nisbatan "yirik sema" yoki "arxisema"[17] sifatida namoyon bo'ladi. Bir morfemada ikki semaning sinkretik nomlanishi ham sodir bo'lishi mumkin. Ushbu holat fransuz tilida ham kuzatiladi. *Venir-revenir* harakat fe'llarida ikkinchi fe'lidagi *-re* qo'shimchasi yangi sema hosil qiladi. O'zbek tilida bu holat qo'shma fe'llarda hosil bo'ladi: keldi - borib keldi kabi.

Agar turli tizimdagi tillarda so'z turkumlarini amalga oshiruvchi tuzilmalarning mavjudligi, maxsus morfologik belgilar, morfologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi bilan tavsiflansa, bunda so'z yasash maxsus texnika emasligi, boshqa grammatik kategoriyalarning ham o'rni muhimligini unutmashlik kerak[18]. O'z navbatida, kategoriyalar so'z turkumlarini yanada kengroq tushunishni ta'minlovchi subkategoriyalarga ajratiladi.

Misol uchun, fe'l shaxs, daraja, zamon va boshqa kategoriyalar bilan tavsiflanadi. Ushbu kategoriyalar bir qator subkategoriyalarga ega bo'lib, ularning ichida ma'lum ma'nolar farqlanadi. Har qaysi fe'l formasi ma'nosini turli subkategoriyalar va kategoriyalarga mansub komponentlar birikuvini sifatida tasvirlash mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: 1960.
2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: 1955.
3. Galisson R. Analyse semique, actualisation semique, et approche du sens en methodologie//Langue française, N 8, 1970.
4. Schmidt W. Lexikalische und aktuelle Bedeutung. Ein Beitrag zur Theorie der Wortbedeutung. – Berlin, 1965.
5. <https://journal.fledu.uz/ru/teoriya-vydvizheniya-kognitiv>
6. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/836](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/836)
7. Гак В.Г. Беседы о французском слове. – М.: 1966. Сопоставительная лексикология. – М.: 1977. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация (Общие вопросы). – М.: 1977. – С.287-293
8. Лосев А.Ф. О возможности сближения лингвистики классической и лингвистики структуральной // Вопросы языкознания. 1968. № 1. – С.50
9. Weinreich U. Explorations in Semantics Theory//Current Trends in Linguistics. vol. III, The Hague, 1966. – P.468.

10. Katz J.J., Fodor J.A. The Structure of a Semantic Theory // *Langages*. 39, 2, 1963; J.J.Katz, J.A.Fodor. Structure d'une theorie semantique avec applications au francais// *Cahiers de lexicologie*. 1966, II, – Paris, 1966. J.J Katz, P.M. Postal. An Integrated Theory of Linguistic Description. –Cambridge (Mass), 1964; J.J. Katz. The Philosophy of Language. N.Y – London, 1966.
11. Тодоров Т. Recherches semantiques//*Langages*, – Paris, 1966, N1, – P.34-37.
12. Weinreich U. On the Semantic Structure of Language//*Universals of Language*, – Cambridge (Mass), 1963.
13. Weinreich U. Explorations in Semantic Theory//*Current Trends in Linguistics*, v. III. – The tsague, 1966
14. Сафаров Ш. Семантика. Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 8
15. Сафаров Ш. Семантика. Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 29
16. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. – М.,1977. – С.12-14
17. Pottier B. La definition semantique dans les dictionnaires//*Travaux de linguistique et de Litterature*. IX, 1. – Strasbourg, 1965.
18. Гак В. Языковая номинация. – М.: Наука, 1977. – С.64.